XIV ASRDA YOZILGAN “NAHJ UL-FARODIS” ASARIDA AXLOQIY VA TASAVVUFIY QARASHLARNING IFODALANISHI

Abduraxmonov Abdulxodiy Abdulatif o‘g‘li
Mir Arab oliy madrasasi o’qituvchisi
Tel: +998906219118
E-mail: abdulhodiymargilon@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23134041

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIV asr turkiy adabiy merosining muhim namunalaridan biri bo‘lgan Mahmud Ali Kadarīyning «Nahj ul-farodis» («Jannatlarning ochiq yo‘li») asari tadqiq etiladi. Unda asarning yaratilish tarixi, muallifi, qo‘lyozma nusxasining tuzilishi va kitobat xususiyatlari, shuningdek, uning axloqiy, diniy va tasavvufiy mazmuni tahlil qilinadi. «Nahj ul-farodis»ning to‘rt bob va qirq fasldan tashkil topgani, unda Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) hayoti, sahobalar va mazhab imomlari faoliyati, insonni Alloh taologa yaqinlashtiruvchi ezgu amallar hamda undan uzoqlashtiruvchi illatlar haqida hikoya va rivoyatlar asosida fikr yuritilgani yoritiladi. Asarning Sulaymoniya kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxasi, uning faksimile va transliteratsiya shaklidagi nashrlari hamda Janos Eckmann, Semih Tezcan va Hamza Zülfikarlarning tadqiqotlari haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, asarda Qur’on oyatlari, hadislar, tasavvufiy hikoyatlar va diniy-axloqiy manbalardan foydalanilganligi ko‘rsatilib, uning XIV asr turkiy nasri, diniy-ma’rifiy tafakkur va tasavvuf tarixini o‘rganishdagi ilmiy ahamiyati asoslanadi. Maqolada «Nahj ul-farodis»ni matniy va manbashunoslik nuqtayi nazaridan yanada chuqur tadqiq etish zarurati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: «Nahj ul-farodis», Mahmud Ali Kadarīy, XIV asr turkiy adabiyoti, turkiy nasr, tasavvuf, axloqiy-ta’limiy asar, diniy-ma’rifiy meros, qo‘lyozma, Janos Eckmann, Semih Tezcan, Hamza Zülfikar, faksimile, transliteratsiya, manbashunoslik.

XI-XII asrlarga kelib, O‘rta Osiyoda butun islom olami miqyosida umume’tirof etilgan Yassaviya, Kubroviya, Xojagon kabi nufuzli mustaqil tariqatlar vujudga kelgan. Xojagon tariqati XIV asrga kelib, Bahouddin Naqshband tomonidan yanada takomillashdi. Bu esa O‘rta Osiyoda mo‘g‘ullar hukmronligidan keyingi diniy-ma’naviy hayotning yangicha yo‘nalishda shakllanishiga asos bo‘ldi. Aynan XIV-XV asrlardan boshlab ushbu tariqat vakillari jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok eta boshladilar. O‘sha davrlarda diyorimizdagi olimlar va tasavvuf ulamolari tarafidan axloqiy va tasavvufiy asarlar yozila boshlandi. Shunday asarlardan biri «Najh ul-farodis» («Jannatlarning ochiq yo‘li»)– XIV asrda turkiy tilda bitilgan asar bo‘lib, musulmonchilikka asoslangan muhim axloqiy va tasavvufiy masalalarni yoritib beruvchi noyob adabiy manbadir. Uning ilm olamiga tanitilishida vengriyalik olim Janos Eckmann va turk olimlari Semih Tezjan va Hamza Zulfiqorlarning alohida xizmati bor. Janos Eckmann sa’y-harakati bilan Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasi saqlanayotgan «Nahj ul-farodis» noyob qo‘lyozmasining faksimile nusxasi yaratildi. Uning o‘rganilishi tarixi xususida olimning muhim ilmiy ahamiyatga molik «Kirish» maqolasi va Semih Tezjan, Hamza Zulfiqorlar tomonidan asarning Janos Eckmann

tayyorlagan faksimile nusxasi, uning lotin yozuvidagi transliteratsiyasi chop etildi. J.Eckmann maqolasida 879-raqam ostida saqlanuvchi «Najh ul-farodis»ning «Yangi Jome» nusxasi deb ataluvchi bu qo‘lyozmani ilk bor Ahmad Zakiy Validiy kashf etgani, «Xorazmda yozilgan eski turkcha asarlar» maqolasida asar va uning muallifi xususida quyidagilarni bildirganini qayd etadi: «Bu kitobning muallifi xorazmlik bir zotdir. Tili sof Xorazm turkchasida va uning muallifi (hijriy) 761-yilda vafot etgandir. Bu esa muallifning ham xorazmlik ekanligiga dalolat qiladi» [Eckmann, Janos. 2004].

Tatar olimi Shahobiddin Marjoniyning «Kitabu mustafedi al-ahbar fi ahvali Qozon va Bulg‘or» nomli tarixiy kitobida asar muallifining «Mahmud bin Ali as-Saroiy menshen va al-Bulg‘oriy mevlevi...» tarzida tanitganini Ahmad Zakiy Validiy fikrlariga tayanib inkor etadi. Ma’lum bo‘ladiki, «Bulg‘oriy» nisbasi asarning boshqa bir qo‘lyozmasini ko‘chirgan kotibga tegishlidir. Shunday qilib, Mahmud Ali borasida Ko‘hna Urganch shahrining shimoli-sharqida joylashgan hozirgi Qoraqalpog‘istonning Chimboy va Nukus shaharlari orasidagi qadimgi madaniy markazlardan biri bo‘lgan Kadar shahrida tavallud topgani haqida muayyan qo‘nimga kelinadi.

Qo‘lyozmaning asl nusxasida asosiy matn qora rangda, fasl va boblarning nomlari hamda ba’zi xos ismlar, muhim sana va jumlalar esa qizil rangda ko‘chirilgan. Jumlalar yirik harflar va harakatlar (zer-u zabarlar) bilan bitilgan. Jumlalarning qora rangda harakatlarning qizil rangda ekanligi zer-u zabarlar asosiy matn kitobat qilinganligidan keyin qo‘yilganligini anglatadi. Ba’zi bir so‘zlarning ostiga qizil chiziq bilan chizilgan. Masalan, 66-bet 1-qatordagi يركا عرب ميل jumlasi 211-bet 4-qatordagi مملكت محبتى كونكولدا jumlasi. Bundan tashqari 1-sahifaning o‘rtasida وتفسيرآية متفرقة من القران العظيم لشيخ الامام العالم ابي محمد ابن مسعود البغوى («va tafsir-u oyatin mutafarriqotin min al-Qur’an al-Aziym lish-shayh al-imam al-a’lim Abu Muhammad ibn Mas’ud al-BaG‘aviy») yozuvi bor. Qo‘lyozmaning 3-, 216- va 444-betlarida «Sulton Ahmadxon G‘oziy Sulton Mahmudxon» yozuvli muhr to‘rt burchakli pechat mavjud. Lekin bizning qo‘limizdagi bo‘lgan nusxa faksimeliya nashridan pdf holatiga keltirilgani uchun ham qizil bilan berilgan joylari bizda ko‘rinmaydi. Yuqoridagi fikrlarni Janos Ecsmanning fikriga tayangan holatda ayta olamiz. Asarni tarkibiy tuzilmasi asar 222 varoq 444 sahifadan iborat bo‘lib, matn har bir betga 17 qatordan qilib ko‘chirilgan. Ba’zi betlar zich yozilgan, birinchi nazar tushganda 17 qatordan oz bo‘lsa kerak degan fikr keladi lekin to‘liq 17 qator chiqadi.

Qo‘lyozmaning 36, 59, 88, 91, 105, 120, 122, 139, 160, 176, 185, 187, 194, 199, 209, 212, 292, 293, 305, 312, 332, 407, 416, 423, 440-sahifalarning xoshiyalarida izohlar yozilgan. Qo‘lyozmada ayrim betlarning o‘rni almashgan. Lekin faksimeliya nusxasida noshir har -bir betlarni o‘z o‘rniga qo‘yib pedef holatiga keltirgan.

Asar diniy-didaktik ruhda yozilgan bo‘lib, birinchi muqaddima bilan boshlanadi. Asarda to‘rta bob va har bir bobda o‘ntadan fasllar keltirilgan. Undagi birinchi bob Muhammad alayhissalomning hayotiga, ikkinchi bob sahobalar va to‘rt mazhabboshi imomlarga bag‘ishlangan. Asarning uchinchi bobida Alloh taologa yaqinlashtiruvchi yaxshi ammallar va to‘rtinchi bobda Alloh taolodan uzoqlashtiruvchi yomon amallar haqida so‘z yuritilgan. Aynan keyingi ikki bobda muallif maqbul va nomaqbul amallarni ikki bobga ajratib har bir bobda o‘ntadan fasl keltirilgan. Chunonchi, asarda «Imom Molik (r.a.)ning fazilati bayonida» (2-bob 9-fasl) «Ibrohim (a.s)ning Alloh nima uchun do‘st qilib olganligi», «Tun-u kun ibodat

qilish fazilati bayonida» (3-bob 9-fasl) «Robiyat ul-Adaviya» , «Nohaq qon to‘kish ofati bayonida» (4-bob 1-fasl) «Qobil va Hobil», «Imom Voqidiy», «Muso (a.s)», «Hajjoji zolim», «Dunyoni sevish bayonida» (4-bob 6-fasl) «Molik ibn Dinor», «Fuzayl (r.a.)», «Gina va hasad bayonida» (4-bob 8-fasl) «Zakaryo (a.s.)» singari hikoya va rivoyatlar keltiriladi. Fasllarning bunday hikoyat va rivoyatlar bilan ziynatlanganligi asar muallifining yaxshigina badiiy mahoratidan darak beradi.

Asarga bugungi kunga qadar olimlar tomonidan katta qiziqish bilan qaralmoqda va uning nafaqat badiiy, tarixiy va tasavvufiy, diniy-axloqiy tomonlari, shu bilan birga til xususiyatlari ham o‘rganilmoqda. Hatto asar faksimeliya, transletiratsiya ko‘rinishida nashr etilmoqda. Masalan, asar «Nehcül-Feradis (Cennetlerin açık yolu)» nomi ostida Turkiyada 3 jildli kitob ko‘rinishida nashr qilingan: I jild – faksimeliya, II jild – trasliteratsiya (lotin yozuvida), III jild esa asarning izohi va so‘zlar lug‘ati (turk tilida). Bizning qo‘limizda ushbu asarning Anqarada 2004-yilda nashr qilingan I va II jildlari mavjud.

Asar va uning muallifi haqida faqatgina kitobning xotima qismida ma’lumot berilgan.

Bu kitobning musannifi yakshanba kuni vafot etdi. Ammo bu kitobni jam qiluvchi (ya’ni kotib) aytadiki: «bu kitobda keltirilgan bazi gaplarni Imom Jarulloh (Imom Zamaxshariy) o‘zining «al-Kashshof» asarida naql qilgan, yana Imom Ma’oniy Isfahoniy (r.h) o‘zining «Tafsir»ida naql qilgan. Bu kitobda («Tafsir»da) bir faslning avvalida Payg‘ambar alayhis-salomdan bir hadis rivoyat qilinganki, ushbu hadisda bu kitob (Najh ul-farodis)ning nomi zikr qilingan. (O‘ngin) bu kitobdagi hadislar yuqorida keltirilgan kitoblardan olingan. Yana ulamolarni, mashoyixlarni va ularning hikoyatlari ham keltirilgan. Musannif jumladan, Imom Abu Tolib Makkiyning «Quvvat ul-qulub» , Imom Firdavsiyning «Mujtaliy» va uning sharhidan ham naql qilgan. Va yana Imom Voqidiyning «Mag‘osiy» nomli kitobidan ham naql qilgan. Ammo bu kitobni o‘qiganlardan iltimos shuki, bu kitobni jamlaganni haqqiga duo qilsa, bu duosini barokatidan Alloh uni tamug‘din (Do‘zax) xalos qilsa va sakkiz Jannatni nasib qilsa. Amin».

Asarning ahamiyati va uning naqadar katta qiymatga ega ekanligi tasavvufiy olimlar oldiga uni qayta sinchiklab o‘rganish vazifasini qo‘yadi. Bu asarni matniy tadqiq etish, uni asliyatdagi eski o‘zbek tiliga xos bo‘lgan xususiyatlarni inobatga olgan holda nashrga tayyorlash va ilmiy o‘rganish bu noyob manba bilan o‘zbek o‘quvchilarini tanitish nuqtaiy nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Asarning ko‘plab nusxalari mavjudligi va turkolog olimlar tomonidan o‘rganilganligi u haqida ko‘plab ilmiy maqola va asarlar yaratilganligi, faksimeliya, transliteratsiyon variantlarda nashr qilinganligi uni tadqiq va tadbil qilishda qulaylik yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nehcül-Feradıs. Uçmahlarnıng Açık Yolu (Cennetlerün Açık Yolu). I Metin. II.Tıpkıbasım. Tıpkıbasım ve Çevriyazı: Janos Eckmann, Yayımlayanlar: Semih Tezcan, Hamza Zülfikar. Ankara: Atatürk Kültür, Dil ve Tarih Yüksek Kurumu Türk Dil Kurumu Yayınları. 2004.
2. Eckmann, Jenos. Ön söz. Nehcül-Feradıs. Uçmahlarnıng Açık Yolu (Cennetlerün Açık Yolu). I Metin. II.Tıpkıbasım. Tıpkıbasım ve Çevriyazı: Janos Eckmann, Yayımlayanlar: Semih Tezcan, Hamza Zülfikar. Ankara: Atatürk Kültür, Dil ve Tarih Yüksek Kurumu Türk Dil Kurumu Yayınları. 2004.